
TOSHLOQ TUMANIDA "SOG'LOM TANDA-SIFATLI TA'LIM" SHIORI OSTIDA SPORT MUSOBAQALARI BO'LIB O'TDI

Tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog xodimlari o'rtasida "Besh tashabbus" olimpiadasi doirasida "Sog'lom tanda-sifatli ta'lim" shiori ostida sportning voleybol, futbol, shaxmat, shashka, stol tennisi turlari bo'yicha musobaqaning tuman bosqichi o'tkazildi.

Musobaqalarda jami 63 nafar pedagog xodimlar ishtirok etdi. Taqdirlash marosimida tuman MMTB boshlig'i A.Soliyev, TFXKU tuman bo'linmasi kengashi raisi S.Mo'minovlar ishtirok etdi.

Musobaqaning futbol turi bo'yicha 29-umumta'lim maktab jamoasi, ayollar o'rtasida voleybol sport turi bo'yicha 14-umumta'lim maktab jamoasi, erkaklar o'rtasida shaxmat sport turi bo'yicha 47-umumta'lim maktabi, ayollar o'rtasida 15-umumta'lim maktabi, shashka sport turi bo'yicha erkaklar o'rtasida 38-umumta'lim maktabi, ayollar o'rtasida 26-umumta'lim maktabi, stol tennisi sport turi bo'yicha erkaklar o'rtasida 2-umumta'lim maktabi, ayollar o'rtasida 2-umumta'lim maktabi jamoalar g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

G'olib pedagog xodimlarga TFXKU Toshloq tuman bo'linmasining esdalik sovg'alari topshirildi.

2024-04-27 10:46:04